INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
ISSN: 2181-3868 | SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

EMOTIV-KAUZATIV QURILMALARNING KOGNITIV-PRAGMATIK TAMOYILLARI

Turniyazova Ruxsora Behzod qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
xorijiy til va adabiyot kafedrasi o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.15681315

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslikda ham emotsiyalar to‘laqonli ravishda tadqiq etilishi mumkinligi haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Til ilmida hissiyotlarning o‘rganilishi uch muhim omilga bog‘liq bo‘lib, ulardan biri ekstralingvistik, ikkinchisi fiziologik, uchinchisi esa verbal va noverbal vositalarga tayanishdir. Masalan, mimika, jestika, daktil alifbosi kabilar hissiyot mexanizmlarining ishlashi bilan aloqador bo‘lib, ekstralingvistik omillar sirasiga mansub. Fiziologik jihatdan hissiy-kommunikativ jarayonida inson miyasining neyrologik faoliyati tekshiriladi. Bundan tashqari, inson kommunikativ jarayonda verbal hamda noverbal aloqa vositalaridan foydalanishi mumkinligi izoh talab qilmaydi. Mazkur maqolada ana shu tushunchalar kauzativ nuqtayi nazardan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: emotsiya, kauzatsiya, kognitsiya, pragmatika, affekt, kauzator, kauzant.

Аннотация. В статье описывается рассуждение о том, что эмоции также могут быть полностью исследованы в лингвистике. Изучение эмоций в лингвистике зависит от трех важных факторов, один из которых − экстралингвистический, второй − физиологический, а третий − опора на вербальные и невербальные средства общения. Например, такие как мимика, жесты, дактильная азбука связаны с функционированием эмоциональных механизмов и относятся к числу экстралингвистических факторов. Физиологически в эмоционально-коммуникативном процессе исследуется неврологическая активность мозга человека. Кроме того, не требует пояснений тот факт, что человек может использовать в коммуникативном процессе как вербальные, так и невербальные средства общения. В данной статье эти понятия освещаются с каузативной точки зрения.

Ключевые слова: эмоция, каузация, когниция, прагматика, аффект, каузатор, каузант.

Abstract. The article describes the reasoning that emotions can also be fully explored in linguistics. The study of emotions in linguistics depends on three important factors, one of which is extralinguistic, the second is physiological, and the third is reliance on verbal and non-verbal means of communication. For example, such as facial expressions, gestures, dactylic alphabet are associated with the functioning of emotional mechanisms and are among the extralinguistic factors. Physiologically, the neurological activity of the human brain is studied in the emotional-communicative process. In addition, it is self-explanatory that a person can use both verbal and non-verbal means of communication in the communication process. In this article, these concepts are covered from a causative point of view.

Key words: emotion, causation, cognition, pragmatics, affect, causator, causant.

Inson tamaddunining barcha bosqichlarida his-tuyg‘ular uning ajralmas qismi bo‘lib kelganligi shubhasizdir. Ch.Darvin, A.Potebnya singari olimlar hatto inson tilining paydo

bo‘lishi masalasini ham biologik omillardan biri hisoblanuvchi his-tuyg‘ularga bog‘liqligini ta’kidlashadi. Albatta, tilning paydo bo‘lishi faqatgina biologik omilga asoslanmasa ham, maskur g‘oya emotsiyaning ilmiy jihatdan o‘rganilishiga to‘sqinlik qila olmadi. Emotivlikning tabiatini anglash, uni tahlil qilish turli fanlar doirasida mutaxassislarda zo‘r qiziqish uyg‘otdi va dolzarb ilmiy tadqiqot mavzularidan biriga aylandi. Jumladan, emotsiyalar biologiyada E.Gelgorn, J.Lufborrou, fiziologiyada G.Uolter, P.Ekman, psixologiyada K.Y.Izard, Y.V.Sherbatix, kibernetikada D.Vuldrij kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etildi.

Ammo tilshunoslikda inson tilining hissiy jihatlarining o‘rganilishi muammosi birmuncha oqsar edi. Boshqacha aytganda, bu mavzu tilshunoslar orasida katta qiziqish uyg‘otmadi. Emotivlikning o‘rganilishining tilga daxldor tomonlari faqatgina badiiy asar tilining tahlilida aks etardi, xolos. U ham biror metodga asoslangan tarzda ishlanmas edi [Клобуков; 110-123].

Yuqoridagilardan tashqari, E.Sepirning emotivlik lingvistikaning o‘rganish obyekti bo‘la olmasligi, chunki emotsiya so‘z semantikasi bilan bog‘liq emasligi, u ko‘proq sof psixologiyaga taalluqli ekanligi haqidagi g‘oyasi tilshunoslarda o‘z ta’sirini ko‘rsatdi [Сепир; 210].

Tilshunoslik ilmi ham emotsiyalarni to‘laqonli ravishda tadqiq etishga haqli ekanligi xususidagi mulohazalarini o‘rtaga qo‘ygan Y.M.Osipov lingvistikada yangicha ilmiy qarashlardan birini izohlab berdi. Olimning fikricha, til ilmida hissiyotlarning o‘rganilishi ikki muhim omilga bog‘liq bo‘lib, ulardan biri ekstralingvistik, ikkinchisi esa fiziologik xarakterlidir. Masalan, mimika, jestika, daktil alifbosi kabilar hissiyot mexanizmlarining ishlashi bilan aloqador bo‘lib, ekstralingvistik omillar sirasiga mansub. Fiziologik jihatdan hissiy-kommunikativ jarayonida inson miyasining neyrologik faoliyati tekshiriladi [Осипов; 116-127].

Mazkur fikrga to‘liq qo‘shilsa bo‘ladi. Zotan, inson muloqot asnosida ekstralingvistik vositalarning qaysi biridan foydalanishidan qat’i nazar uning miyasining faoliyati, aslida, fiziologik jihatdan beqiyosdir. Chunki miya inson faoliyatining barcha jabhalarini boshqarib turuvchi muhim a’zodir. Ammo Y.M.Osipov til ilmida hissiyotlarning o‘rganilishi ikki muhim omilga bog‘liqligini ta’kidlab o‘tgan bo‘lsa-da, verbal muloqotda hissiyotlarning ifodalanishi haqida fikr bildirmaydi. Shu bois, bizningcha, til ilmida hissiyotlarning o‘rganilishi uch muhim omilga tayanishini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Zero, inson kommunikativ jarayonda verbal hamda noverbal aloqa vositalaridan foydalanishi mumkinligi izoh talab qilmaydi. Bu o‘rinda, o‘z navbatida, miya fiziologiyasi bosh vazifani ado etadi. Bundan tashqari, 1987-yilda Berlinda bo‘lib o‘tgan tilshunoslarning IV Xalqaro kongressida F.Danesh lingvistikada emotsionallikning tadqiq etilishi o‘rni xususida ma’ruza o‘qidi [Danes; 278-291].

Bunda emotsiya lingvistikaning ham o‘rganish obyekti bo‘la olishi to‘g‘risida ishonchli nazariy ma’lumotlar keltirildi. Mazkur ma’ruza tilshunoslarning yangi tadqiqotlari uchun keng imkoniyatlar yaratdi va yangi yo‘llarni ochib berdi.

Shunday qilib, hozirgi tilshunoslikda emotsional xususiyatlarning tilda aks etishini o‘rganuvchi soha – *emotiologiya* vujudga keldi. Ushbu tushuncha rus tilshunosi V.I.Shaxovskiy tomonidan iste’molga kiritildi [Шаховский; 1988].

Emotiologiya psixologiya va lingvistikaning uyg‘unlashuvi asosida shakllandi. Boshqacha aytganda, u psixolingvistikaning o‘ziga xos obyekti bo‘lib, «*his-tuyg‘ular tilshunosligi*» deb nom olgan maqomni egalladi.

Bugungi kunda his-tuyg‘ularning lingvistika sohasi bilan bog‘lab o‘rganilishiga bag‘ishlangan talaygina tadqiqotlar amalga oshirildi. Bular jumlasiga A.Vejbitskaya («Язык. Культура. Познание». -Москва, 1996), L.A.Piotrovskaya («Эмоциогенность текста: психологический и лингвистический аспекты».-Волгоград, 2023), Y.Y.Myagkova

(«Язык, сознание, коммуникация». -Москва, 2010), O.Y.Filimonova («Категория эмотивности в контексте современной когнитивной лингвистики», -Санкт-Петербург, 2012), D.A.Romanov («Состав и особенности репрезентации модификаций эмоциональных модальностей (на материале русского языка)». -Курск, 2012), L.G.Babenko («Лексические средства обозначения эмоций в русском языке». -Екатеринбург, 1989) larning ishlarini kiritishimiz mumkin.

Tilshunoslikda emotsionallik keng jabhada tadqiq etilar ekan, u lingvistik nuqtayi nazardan inson his-tuyg‘ularini o‘rganishning bir qator jihatlarini qamrab oladi:

1) hissiy holatlar, munosabatlarini ifodalovchi til va nutq vositalari;
2) emotsiya ifodalanishining verbal va noverbal holati;
3) emotivlik, modallik va pragmatika;
4) lingvomadaniyatshunoslikda emotsiya;
5) so‘z ma’nosining emotsional tarkibi;
6) his-tuyg‘u orqali muloqot;
7) tilning emotsional vazifasi;
8) emotivlik sintaksisi;
9) his-tuyg‘ular metaforizatsiyasi;
10) nominativ xarakterli emotivlarning leksikografik tuzilishi kabi.

Ammo emotsiyani tahlil etishning tilshunoslikka aloqador bo‘lgan tomonlari yuqorida sanab o‘tilganlar bilan chegaralanib qoladi demoqchi emasmiz, albatta. Zero, insoniyat taraqqiyoti bilan uning tilining ham o‘ziga xos xususiyatlari rivojlanib borar ekan, his-tuyg‘ular hamda til muammosi kun tartibida doim dolzarblik kasb etaveradi va mazkur obyektning tekshirish qirralari ham tobora tarmoq otaveradi (masalan, biz emotsiyani kauzatsiyaga bog‘lab o‘rganayotganimiz singari).

Shuni ham aytish zarurki, emotiologiya anchayin yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, tarjimashunoslik va stilistikada mazkur tushuncha izohiga tegishlicha e’tibor qaratilgan emas. Bizningcha, mavjud holatning yuzaga kelishining sababi, emotsiyani o‘rganishning lingvistikadagi o‘rni bilan psixologiya nazariyalarining chalkashtirib yuborilayotganida bo‘lsa kerak. Psixologiyada emotsiyalar *evolyutsion, rudimentar, psixoanalitik, qo‘shfaktorli, biologik* nazariyalar asosida tekshirilsa, lingvistikada *kommunikativ, kognitiv, semantik, diskursiv, kauzativ* tomondan tadqiq etiladi.

His-tuyg‘ularni lingvistik jihatdan tahlil etishda o‘ziga xos me’yorlarga amal qilish kerakligini e’tiborga olib, D.A.Romanov uning kontsepsiyasini ishlab chiqdi. Mazkur yondashuv til ilmida emotsiyalarni o‘rganishning o‘rnini, qonuniyati asoslarini belgilab berdi [Романов; 2004].

Filologiya sohasida emotsional leksikaning tahlili badiiy matnda taqdim etilgan lingvistik shakl va mazmun orqali amalga oshiriladi. Zero, uni o‘rganish matnning asosiy mazmuniy sinchini shakllantiruvchi, g‘oyasini ifodalovchi inson omili psixologiyasini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Y.D.Apresyan, V.N.Gridin, V.A.Maslova, A.M.Shaxnarovich kabi olimlar emotivlikni antropotsentrik lingvistikaning o‘rganish obyekti sifatida ta’riflashadi.

Ayrim filologlar emotitivlikni ekspressivlikning ajralmas qismi sifatida tahlil etishadi. Jumladan, Y.M.Galkina-Fedoruk nutqning ekspressivligi kuchli ifodaviylikni taqozo etishini, emotsiyalar har doim ekspressiv bo‘lishini, lekin ekspressivlik har doim emotsional bo‘lmasligini ta’kidlaydi [Галкина-Федорук; 124].

Bizningcha, ekspressivlik bo‘lgan joyda albatta emotsionallik passiv darajada bo‘lsa-da, kuzatiladi. Zero, ekspressivlik his-tuyg‘ni, fikrni so‘zlashuv tilida yoki imo-ishoralar, mimika kabi aloqa vositalari yordamida ifodalash usulidir. Ekspressivlik yorqinligi, intensivligi va

ISSN: 2181-3868 | SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu haqda fikr yuritgan A.Abdullayev emotivlik ekspressivlik bilan birga o‘rganilishini to‘g‘ri ta’kidlaydi [Abdullayev; 6].

Shunday qilib mazkur masalalar tavsifi tadqiqotchilarni his-tuyg‘uni ifodalovchi leksikani nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan qo‘llanishini tahlil etishga ham undaydi. Amaliy vaziyatda adresat hamda adresant o‘rtasida emotsional holat va emotsional munosabat jarayonining kechishi kuzatiladi. Bu albatta, kognitsiya va pragmatikada tekshiriladi.

Emotiv kauzatsiyaning kognitiv-pragmatik tamoyillari xususida mulohaza yuritishdan avval kognitsiya va pragmatika tushunchalari tavsifini berishni lozim topdik. Voqelik hodisalari va qonuniyatlari haqida bilimlarga ega bo‘lish jarayoni va usullari kognitsiya (kognitsiya – lotincha cognitio – «bilish») deb yuritiladi. Kognitsiya jarayoni psixologiya, falsafa, mantiq kabi sohalar bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur tushuncha XX asrning 70-80-yillaridan e’tiboran tilshunoslik ilmida ham joriy etila boshlandi. Jumladan, «kognitiv grammatika» termini 1975-yilda birinchi marta J.Lakoff va G.Tompsonning «Kognitiv grammatika bilan tanishuv» maqolasida qo‘llandi. 1985-yilda mantiqiy muammolarni lingvistikaga bog‘lab, kognitiv jihatdan o‘rgangan J.Fokonyening «Mental muhit» kitobi nashr etildi. 1987-yilda R.Langakerning «Kognitiv grammatika asoslari» asarining birinchi jildi nashr etildi [Коннова; 10-11]. Shu tariqa tilshunoslik fani ham kognitsiya muammolari bilan shug‘ullana boshladi. Kognitiv tilshunoslik tilni inson aqliy faoliyatining bir shakli sifatida e’tirof etadi va unda kognitiv faoliyat natijalari aks etishini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o‘rganadigan sohadir. Kognitiv tilshunoslikning asosiy terminlari sifatida «kognitsiya», «kategorizatsiya», «dunyo tasviri», «konsept», «freym», «ssenariy», «skript», «madaniy konstantalar», «konseptosfera» kabi tushunchalar xizmat qiladi.

Kognitsiya bilimlarni egallash jarayonini va uning natijasini taqozo etadi. Aniqrog‘i, u idrok, kuzatish, tafakkur, nutq, tasavvur kabi psixologik jarayonlarning uyushmasidir.

Kategorizatsiya insonning tashqi va ichki dunyosini uning faoliyati va mavjudligining muhim xususiyatlari bilan bog‘liq holda kategorik sohalarga bo‘lish jarayonidir.

Konsept ong va dunyo haqidagi bilimning mazmuniy komponentidir. Unda inson faoliyati natijalari va dunyoni bilish jarayoni aks etadi.

Madaniy konstantalar qadimgi davrlarda paydo bo‘lib, hozirgi kunda ham til egalari nutqida kuzatilishi mumkin bo‘lgan tushunchalardir. U madaniyatning doimiy ko‘rsatkichidir.

Konseptosfera ma’lum tilda so‘zlashuvchilarning dunyoqarashini tashkil etuvchi koseptlar yig‘indisidir.

Skript operativ axborotni tasavvur etish yoki qayta ishlash usulidir. U muayyan stereotipik vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligi va boshqalar qanday harakat qilishlari mumkinligi haqidagi bilimlar to‘plamini tashkil etadi.

Ssenariy operativ axborotni taqdim etish usulidir.

Freym stereotipik vaziyatni ifodalash uchun kerak bo‘ladigan bilimlar strukturasi(yig‘indisi, to‘ri)dir.

Dunyoning lingvistik tasviri tilning leksik, frazeologik tarkibida qayd etilgan va ma’lum til egalarining dunyo haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi kompleksdir [Крапивник; 5].

1878-yilda semiozislar sistemasining pragmatik (*pragmatika* – grekcha πράγματος – «ish», «harakat», «ta’sir») xususiyatlari birinchi marta amerikalik olim Ch.Pirs tomonidan bayon etildi. U «Fikrlarimizni qanday aniq qilishimiz kerak» nomli maqolasida pragmatika haqida mulohaza yuritdi [http://www.philosophy.ru/library/james/pragma.html. Джеймс У. Что такое прагматизм? (Sahifaga 2025. 03. 01 da murojaat etildi)].

XX asrning 30-yillariga kelib, amerikalik faylasuf Ch.Morris mazkur sohani yanada kengroq o‘rgandi [https://epistemology_of_science.academic.ru/611/ (Sahifaga 2025.03.01 da murojaat etildi)].

Pragmalingvistikada *lokutivlik* (*locutio* – lotincha – «suhbat», «nutq», «talaffuz»), *illokutivlik* (*in+locutio* – lotincha – «suhbat ichida», «nutq ichida») va *perlokutivlik* (*per+locutio* – lotincha – «nutq orqali ta’sir etish») kabi terminlardan foydalanamiz. Lokutivlikda suhbat asnosida so‘zlovchi bevosita nimani aytayotgan bo‘lsa, o‘sha nazarda tutiladi. Illokutivlikda aytilayotgan fikir orqali ichki tub ma’no tushuniladi. Aytilgan fikrning tinglovchiga ta’sir etishi perlokutivlik hisoblanadi.

Masalan, *qo‘ng‘iroq chalindi* deyilganda, darhaqiqat, qo‘g‘iroq chalinganini tushunamiz. Ammo mazkur fikr orgqali dars boshlangani nazarda tutilmoqda. Shu fikrning ta’siri oqibatida esa talaba darsga shoshiladi. Bunday vaziyat barcha semiotik belgilar orqali amalga oshishi mumkin. Jumladan, mazkur holat biz tadqiq etayotgan emotiv kauzativlikda ham ro‘y beradi:

Taxtiga takya qilg‘an Xudoyor ikki ko‘zi to‘g‘risig‘a ikki jallodni qo‘yib, yonidag‘i domla shog‘ovul, Tursun otaliq va g‘ayri bir necha a’yonlar bilan suhbatlashar edi.

–Pushti panoho! - dedi hudaychi, - xiyonatkor o‘z ixtiyori bilan kelib, domi adolatingizga taslim bo‘lmoqchi!

–Xiyanatkaring‘ kim?

–Mirzo Anvar! Xon seskanib ketdi, hamnishinlar ham along‘-jalong‘ bo‘ldilar. –Keltir!

Hudaychi qulliq qilib, orqasig‘a qaytdi. Dahlizdagi Anvar birinchi xonadagi a’yonni hayratka solib, ikkinchi tanobiyning bo‘sag‘asida, jallodlar o‘rtasida to‘xtadi va xong‘a ta’zim ado qildi. Raqibni bu qadar jasoratda ko‘rgan Xudoyorning kiprak ostlari uchib, soqol tuklari siyakindi va bir oz so‘z topolmag‘andek tamshanib turdi.

–Sen bizga xiyanat qilding‘, it uvli!

Anvar bosh irg‘atdi.

–Iqrorman.

–Tuzimni unutding‘!

–Tonmayman.

–Iqrorsen, tonmaysen, o‘bdan ish! - dedi zaharxanda qilib xon, - o‘luvdan ham qaytmaysen!

–Men sizdan marhamat so‘rab kelgan emasman, - dedi iljayib Anvar. –O‘zimni o‘limga berib, bir gunohsizni qutqazish uchun kelganman.

Hamnishinlar lablarini tishlashdilar. Xudoyor istehzolik kuldi.

–Pusulmonchiliq qig‘ansan-da?

–Albatta, - dedi Anvar, – boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib pusulmonchiliqdan chiqqach, men pusulmonliq bilan o‘lishni o‘bdan bildim.

Bu javob Xudoyorni qip-qizil tuska qo‘yib, manglayida terlar ko‘rindi, g‘azab o‘ti alanga oldi.

–Sening qig‘an ishing pusulmonchiliqda bormi, it uvli?

–Musulmonchiliqda yuzlab xotin ustiga, bir kambag‘al uylanmakchi bo‘lg‘an qizg‘a ham zo‘rliq qilish bormi, qiblai olam.

–Chiqar buni, jallod! Jallodlar harakatlandilar.

–Xanjarimiz qonsirag‘an!

Anvar bosh chayqab kuldi.

–Gunohsizni menim ko‘z o‘ngimda banddan ozod qilinmas ekan, Anvarni bu yerdan chiqara olmaslar, qiblai olam, - dedi va o‘zini tashqarig‘a torta boshlag‘an jallodlarni arslonlarcha siltab yubordi, – sizda adolat bormi, janob?! (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon)

Keltirilgan matnda emotiv kauzatsiyaning affekt holatida voqelanishini kuzatamiz.

ISSN: 2181-3868 | SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

Mavjud jarayonda kauzantning affekti kauzatorning haqorati va adolatsizligi natijasida paydo bo‘lmoqda. Mazkur vaziyatda, kauzativ situatsiyaning keyingi bosqichida, o‘z navbatida, kauzant ham kauzator maqomiga ko‘tarilmoqda. Zero, adolatsizlik hissi kauzantning kauzatorga nisbatan ta’sir etishiga olib kelmoqda. Natijada faktivlik kauzatsiyasi o‘laroq, kauzator kauzantning talabini bajarishga rozi bo‘lmoqda. Bunda, albatta, leksik vositalarning, sintaktik yo‘lning, modal so‘zlarning, intonatsiyaning ahamiyati ham katta.

Ta’kidlash kerakki, tahlil etilayotgan matnda emotiv jihatdan tuyg‘u, stress, kayfiyat kabi psixologik holatlar ham muhim rol o‘ynamoqda. Kognitivlik jihatdan esa nutqning ta’sirchanligini, psixik holatni, adolatlilik va adolatsizlik kabi kategorizatsiyalashuvni kuzatamiz. Adresat va adresant o‘rtasidagi muloqotda adolat tushunchasi kontsept darajasiga ko‘tarilmoqda. Zotan, butun kauzativ situatsiya pragmatikasi aynan ana shu tushuncha asosida shakllanmoqda. Ushbu vaziyatda kognitsiyaning skript, ssenariy, freym kabi unsurlari ham mavjudki, ular kauzantning muayyan stereotipik vaziyatda qanday harakat qilishi kerakligda, operativ axborotni taqdim etish usulida va stereotipik vaziyatni ifodalash uchun kerak bo‘ladigan bilimlar strukturasida ko‘zga tashlanadi.

Emotiv-kauzativ matn pragmatikasiga kelsak, u ikki shaxs o‘rtasidagi nutqiy aktda namoyon bo‘lmoqda. Nutqiy akt asnosida ironiya, sarkazm, vulgarizm kabi vositalarning qo‘llanishi muloqotning stenik sinesteziyaga moyil ekanligidan dalolat bermoqda. Boshqacha aytganda, nutq illokutsiyasidan individlararo kesatiq, masxaraomuz, achchiq zaharxanda, istehzoli ta’na, piching kabi ma’nolar ifodalanayotganining, perlokutsiyasidan esa nutq egalarining bir-birlariga emotiv ta’sir etayotganliklarining guvohi bo‘lamiz. Ushbu makrostruktura kognitiv-pragmatik distributsiyasidagi emotiv-kauzativ kompleks deb yuritiladi.

Ta’kidlash joizki, har qanday kauzativ vaziyat X (kauzator) – Y (kauzant) – Z (konsekvent – semantik xulosa) tarzida voqelanadi va unda doim ko‘pindividlik alomati kuzatiladi [Turniyazov; 223]. Yuqorida berilgan emotiv-kauzativ kompleks ham ana shunday xususiyatga ega bo‘lib, o‘zining konstanta (k – kauzativ situatsiyada qator o‘zgarishlarga uchraydigan doimiy holat) ko‘rsatkichi mavjuddir. Bu vaziyatda ishtirok etuvchilar xon (kauzator), mirzo Anvar (kauzant), hudaychi (kauzant), jallodlar (kauzant), domla shog‘ovul, Tursun otaliq, boshqa a’yonlar esa nutqning kauzativizatsiya momentida ishtirok etmayotgan individlar. Mazkur makro kauzativ kompleksning konstanta ko‘rsatkichi o‘nga tengdir:

$$k{=}C_1{+}S{\rightarrow}I_1{+}C_2{\rightarrow}I_2\ C_3{+}S{\rightarrow}I_3\ C_4{+}I_2{\rightarrow}S.$$

Kauzatsiya simvollarini quyidagicha belgilaymiz: *k* – konstanta, C – kauzativ situatsiya, S – subyekt, I – individ. Bunda birinchi individ *hudaychi*, ikkinchi individ *mirzo Anvar*, uchinchisi esa *jallodlardir*. *Xon* subyekt simvoli bilan belgilanayotgan kauzatordir. Ushbu kauzativ jarayon to‘rt bosqichli kauzativ situatsiyada sodir bo‘lmoqda. Kauzativizatsiyaning bu tarzda voqelanishi kauzaderivatsiya deb yuritiladi. Zero, derivatsiyada shakllanish, tarmoqlanish va yasalish nazarda tutiladi. Kauzatsiya momentida ishtirok etmayotgan qolgan individlar dekauzativ planda passiv holatda turibdi. Xullas, barcha kauzativ qurilmalar ana shu tarzda tahlil etiladi. Bunda, albatta, ularning derivativ, kognitiv-pragmatik va emotiv tamoyillari e’tiborga olinadi.

Adabiyotlar:

1. Danes F. Cognition and Emotion in Discourse Interaction. -Berlin, 1987, P. 283.
2. Turniyozov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. Kauzatologiya. Monografiya. -Samarqand: SamDCHTI, 2022, 252 bet.
3. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. - Тошкент: Фан, 1987, 86 бет.

4. Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке//Сборник статей по языкознанию. -М.: Наука, 1958, 124 стр.

5. Клобуков П.Е. Эмоции, сознание, культура (особенности отражения эмоций)//Язык, сознание, коммуникация: сб. ст. -М.: Филология, 1998. Вып. 4, 123 стр.

6. Коннова М.Н. Введение в когнитивную лингвистику. -Калининград: Изд-во БФУ им. И.Канта, 2012, 313 стр.

7. Крапивник Е.В. Введение в когнитивную лингвистику (Учебно-методические материалы). -Хабаровск: Тихоокеанский государственный университет, 2014, 19 стр.

8. Осипов Ю.М. Об уточнении понятия «эмоциональность» как лингвистического термина// Проблемы синтаксиса английского языка: ученые записки Моск. гос. пед. ин-та. -М., 1970, № 422, 127 стр.

9. Романов Д.А. Языковая репрезентация эмоций: уровни, функционирование и системы исследований//Автореф. дисс. док. филол. наук. -Белгород: БелГУ, 2004, 48 стр.

10. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. -М.: Прогресс, 1993, 654 стр.

11. Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе (на материале английского языка)//Автореф. дисс. докт. филол. наук. -М.: Ин-т языкознания АН СССР, 1988, 38 стр

12. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.

13. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.

14. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.

15. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.

16. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.

17. Mamirova D. S. Using Slangs in Advertising Texts //International Journal of Management (IJM). – 2021. – Т. 12. – №. 2. – С. 315-320.

18. Shirinboyevna M. D. NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 39-42.